

**RAQAMLI JAMIYATDA O'ZBEK OILAVIY
QADRIYATLARI TRANSFORMATSIYASINING
IJOBIY VA SALBIY OQIBATLARI**

Murotov Akmal Inoyatovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

**ПОЗИТИВНЫЕ И НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ
ТРАНСФОРМАЦИИ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙНЫХ
ЦЕННОСТЕЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ**

Муротов Акмал Иноятович,

**Независимый исследователь Самаркандского государственного
института иностранных языков**

**POSITIVE AND NEGATIVE CONSEQUENCES
OF THE TRANSFORMATION OF UZBEKI FAMILY
VALUES IN THE DIGITAL SOCIETY**

Murotov Akmal Inoyatovich,

**Independent researcher at the Samarkand State Institute of
Foreign Languages**




e-mail:

jamila@gmail.com

Orcid: 0234-0226-

0322-0606



Annotatsiya: Zamonaviy jamiyat raqamli texnologiyalar asosida

tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ta'lim sohalarida, balki jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti – oila tizimida ham chuqur iz qoldirmoqda. Raqamli transformatsiya oilaviy munosabatlar, qadriyatlar va urf-odatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, o'zbek oilasiga xos bo'lgan an'anaviy tamoyillar va ijtimoiy rolining raqamli muhitda qanday evolyutsiyalanayotgani masalasi muhim ilmiy e'tiborni talab qiladi. Ushbu maqolada O'zbekiston oilaviy qadriyatlarining raqamli davrdagi transformatsiyasi, ijtimoiy moslashuv mexanizmlari, bu jarayonning salbiy oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli inqilob, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, kiberxavfsizlik, virtual makon, raqamli tafakkur, oila, qadriyat, vorisiylik.

Аннотация: Современное общество переживает глубокие преобразования на основе цифровых технологий. Этот процесс оказывает значительное влияние не только на экономику, политику и сферу образования, но и на основной социальный институт общества — семью. Цифровая трансформация заметно влияет на семейные отношения, ценности и обычаи. Особенно актуальным становится научное осмысление того, как традиционные принципы и социальные роли, присущие узбекской семье, эволюционируют в цифровой среде. В данной статье рассматривается трансформация семейных ценностей Узбекистана в условиях цифровой эпохи, анализируются механизмы социальной адаптации к новым условиям, а также негативные последствия этого процесса.

Ключевые слова: цифровая революция, искусственный интеллект, облачные технологии, кибербезопасность, виртуальное пространство, цифровое мышление, семья, ценности, преемственность.

Annotation: Modern society is undergoing profound transformations driven by digital technologies. This process significantly affects not only the economy, politics, and education but also the primary social institution - the family. Digital transformation is having a noticeable impact on family relationships, values, and traditions. In particular, the evolution of traditional principles and social roles specific to the Uzbek family in a digital environment requires serious academic attention. This article analyzes the transformation

of family values in Uzbekistan during the digital era, explores the mechanisms of social adaptation to these changes, and examines the negative consequences of this process.

Key words: digital revolution, artificial intelligence, cloud technologies, cybersecurity, virtual space, digital thinking, family, values, continuity.

Kirish. Raqamli davr – bu internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari orqali jamiyat hayotining tubdan o’zgarishini anglatadi. Ushbu texnologiyalar oilaviy institutning funksiyalarini qayta ko’rib chiqishga undaydi. Masofaviy muloqot, onlayn ish rejimi, raqamli tarbiya vositalari, ma’lumotga tezkor kirish imkoniyati – bularning barchasi oila ichidagi rollar, mas’uliyat taqsimoti va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta’sir ko’rsatmoqda. raqamli inqilob inson ongining o’zgarishiga, uning real va axborot makonini idrok etish tarziga ta’sir ko’rsatdi. Axborot ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatish texnologiyalarining rivojlanish sur’ati ko’plab odamlarning bilimni o’zlashtirish salohiyatidan ancha oshib ketdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Internetdagi dunyoni qabul qilishdagi urg’ular ilmiy, madaniy va ta’limiy yo’nalishlardan ko’ngilochar va ensiklopedik yo’nalishlarga siljidi. Bu esa “klip tafakkuri” deb nomlangan yuzaki axborot idrokini shakllantirdi. Bu shakl inson qarashlari va xulq-atvoriga ta’sir qilishni soddalashtiradi va xatti-harakatning majburiy modellarini shakllantiradi. Bu esa ma’lumotlar tarqatish texnologiyalariga ega bo’lgan davlatlar va tashkilotlarga iqtisodiy va siyosiy ustunlik beradi.[1]. Avvallari kattalarning tajribasi va an’analari asosiy ijtimoiy boshqaruv elementi bo’lgan bo’lsa, hozirgi raqamli muhitda yosh avlodning texnologik ustunligi oilaviy ierarxiyani qayta shakllantirmoqda. Bu esa oila a’zolari orasidagi axborot oqimining yo’nalishi va tezligini o’zgartiradi.

Tahlil va natijalar. O’zbek jamiyatida oila nafaqat biologik, balki ijtimoiy va madaniy birlik sifatida qaralgan. Unga xos xususiyatlar – ota-onaga hurmat, katta-kichikka bo’lgan munosabat, mehr-oqibat, avlodlar vorisligi va qadriyatlar uzviyligi bo’lib kelgan. Raqamli transformatsiya esa bu tamoyillarni qayta shakllanishga majbur qilmoqda.

Birinchidan, an’anaviy ta’lim va tarbiya tizimi yangi raqamli muhitga moslashishga harakat qilmoqda. Endilikda ota-onalar farzandlariga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini

o’rgatishga, raqamli xavfsizlikni tushuntirishga majbur bo’lmoqda. Bu esa tarbiya jarayonini faqat axloqiy me’yorlarga emas, balki texnologik savodxonlikka ham bog’lab qo’yadi.

Ikkinchidan, mehnat migratsiyasi va onlayn ish imkoniyatlari sababli an’anaviy gender rollari qayta ko’rib chiqilmoqda. Ayollarning iqtisodiy faolligi ortgani sari ularning oiladagi qaror qabul qilishdagi ishtiroki kuchaymoqda. Shu bilan birga, erkaklarning ota sifatidagi roli ham ko’proq emotsional qo’llab-quvvatlovchi shakliga o’tmoqda.

Uchinchidan, oila marosimlari va udumlari ham raqamli shaklga o’tyapti. Masalan, to’y va boshqa tadbirlar onlayn efirda o’tkazilishi, taklifnomalarning raqamli shaklga o’tishi, sovg’a berish madaniyatining elektron shakllanishi bu jarayonning vizual namunalari.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti inson hayotining barcha sohalarini qamrab olar ekan, u o’z ta’sirini ijtimoiy institutlarning eng nozik va muhim tizimi bo’lgan oila muhitiga ham kuchli bosim ostida ko’rsatmoqda. O’zbek oilasi tarixan ma’naviy mustahkamlik, avlodlar izchilligi, bir-biriga hurmat va mas’uliyat asosida shakllangan ijtimoiy birlik sifatida qaralgan bo’lsa, bugungi raqamli sharoitda bu tayanchlar ko’p jihatdan yemirilish xavfi ostida qolmoqda. Texnologik taraqqiyotning qulayliklari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari o’zbek oilaviy qadriyatlarini jiddiy sinovga solmoqda.[2]

Eng avvalo, raqamli muhit natijasida avlodlararo aloqalarning zaiflashuvi kuzatilmoqda. An’anaviy oilada katta avlod vakillari – bobolar, buvilar, ota-onalar tarbiya beruvchi, hayotiy tajriba va donolikni nasllarga uzatuvchi manba bo’lib kelgan. Ammo internetga to’liq integratsiyalashgan bugungi yosh avlod bilimni ko’proq virtual muhitdan izlaydi. Bu esa ota-ona va farzand o’rtasidagi muloqot darajasining keskin kamayishiga olib kelmoqda. Natijada, oiladagi tabiiy ierarxiya izdan chiqmoqda, keksalarning maqomi va tajribasi qadrsizlanmoqda, bu esa uzviylikni zaiflashtiradi.[3]. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning haddan ziyod tarqalishi

individualizmni kuchaytirib, oilaning jamoaviy mohiyatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Har bir a'zo o'z qurilmasi bilan band bo'lib, hissiy va ma'naviy aloqa sustlashadi. O'zaro suhbatlar kamayadi, oilaviy ovqatlanish, ibodat, maslahatlashuv kabi qadimiy ijtimoiy amaliyotlar asta-sekinlik bilan unut bo'ladi. Shu tariqa, oila ichidagi yaqinlik, ishonch va ruhiy sog'lom muhit zaiflashadi. Texnologiyalar tufayli odamlar real munosabatlarga emas, balki virtual aloqalarga ustuvorlik bera boshlaydi.

Raqamli madaniyat o'zbek oilasining milliy qadriyatlariga ham bevosita zarba bermiqda. Global ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi turmush tarzi va g'arbcha estetikaga asoslangan kontent yoshlarda milliy o'zlikdan begonalashish holatlarini kuchaytirmoqda. O'zbekona muloyimlik, kattaga hurmat, ayollar va erkaklar o'rtasidagi axloqiy mezonlar, nikohga bo'lgan jiddiy yondashuv kabi qadriyatlar global "erkinlik" tushunchasi soyasida o'z mazmunini yo'qotmoqda. Shu bois yoshlar orasida nikohdan voz kechish, mustaqil hayot kechirish, ota-onani qariyalar uyiga topshirish kabi holatlar tobora ko'proq uchramoqda. Bu esa oila institutining individualizm yo'lida yemirilayotganidan dalolat beradi.[4]. Raqamli vositalarning tarbiyada tutgan o'rni esa alohida tashvishli. Bugungi kunda ko'plab ota-onalar farzandlariga telefondan foydalanishga ruxsat berib, uni tarbiya vositasi sifatida ishlatmoqda. Bu esa bolalarning axloqiy shakllanishi nazoratsiz va xavfli muhitda kechayotganini anglatadi. Axloqiy cenzuradan o'tmagan kontent, zo'ravonlik, pornografiya va yolg'on g'oyalar tarbiyaviy ifloslanish keltirib chiqaradi. Natijada, yosh ongida tajovuzkorlik, befarqlik, axloqiy mutlaqchilik va ongli rad etish holatlari shakllanmoqda. Bu esa nafaqat oila, balki butun jamiyatni axloqiy izdan chiqaradi.

Yana bir jiddiy muammo – oilaviy hayotning ijtimoiy tarmoqlarda ommalashuvi. Virtual dunyoda insonlar o'zlarini "ideal" tarzda namoyon etishga urinishadi, bu esa oilaviy haqiqat va virtual obraz o'rtasida ziddiyatli holatlarni yuzaga keltiradi. O'z hayotini boshqalarniki bilan taqqoslash, yetarlicha "baxtli" emasligidan norozi bo'lish, turmush o'rtog'ining "ideal" emasligidan shikoyat qilish holatlari ajrimlar sonining oshishiga xizmat qilmoqda. Oiladagi muammolar ommaga havola qilinadi, sir saqlash madaniyati buziladi va

bu jamiyatdagi ijtimoiy birlikka ham raxna soladi.[5]

Shu bilan birga, raqamli muhitda yolg'on axborotlar, manipulyativ kontent va algoritmik ta'sir orqali yoshlar ongiga mafkuraviy, g'oyaviy aralashuvlar sodir bo'lmoqda. Bu holat insonlarning ongli tanloviga emas, balki algoritmlar asosidagi sun'iy tavsiyalar orqali shakllanayotgan hayot falsafasiga sabab bo'lmoqda. Oilaning mustaqil axloqiy-ma'naviy makon sifatidagi mavqei tobora cheklanmoqda. Jinsiy madaniyat sohasida esa raqamli vositalar nihoyatda xavfli shaklda axloqiy me'yorlarni buzmoqda. Nikoh instituti zaiflashmoqda, er-xotin o'rtasidagi sadoqat qadrsizlanmoqda, yoshlar esa jinsiy munosabatlarga yengil qaray boshlamoqda. Bu esa nafaqat oilaning barqarorligini, balki jamiyatning axloqiy sog'lomligini ham tahdid ostiga qo'ymoqda. Psixologlar fikricha, jinsiy ozodlik targ'iboti, pornografik kontent va sevgi tushunchasining yengillashtirilishi oila muhitida hissiy sovuqlikka, hatto befarzandlikka olib kelmoqda.[6].

Xulosa. Shunday qilib, raqamli inqilob nafaqat texnologik taraqqiyot, balki madaniy va axloqiy tahdidlar davrini boshlab berdi. O'zbek oilasining asriy poydevorlarini saqlab qolish uchun raqamli transformatsiya sharoitida ongli va mas'uliyatli yondashuv zarur. Aks holda, nafaqat oila, balki butun jamiyat ham bu bosim ostida ijtimoiy va ma'naviy izdan chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карцхия Александр Амиранович. Цифровая революция: новые технологии и новая реальность // Правовая информатика. 2017. №1.
2. Komilov, R. R. (2021). Breaking of family relationship in period of globalization. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(2), 56-62.
3. Komilov, R. Z. R. (2023). Marriage: as an object of moral, religious, scientific research.
4. Komilov, R. R. (2018). The aesthetec and moral sides of the family and wedding ceremonies. In *international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy* (pp. 10-14).
5. Komilov, R. R. (2017). The aesthetic significance of the uzbek nation's wedding ceremonies evolution. in *practice of communicative behavior in social and humanitarian researches* (pp. 47-50).
6. Komilov, R. R. (2017). Aesthetic component of wedding ceremonies of the uzbek people. *Theoretical & Applied Science*, (4), 87-89.